

## G'ARB MAMLAKATLARIDA USTOZ SHOGIRDLIK AN'ANALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Malikova Dildoraxon Qobilovna**

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:**

ta'lim, innovatsiya, ustoz-shogird an'analari, G'arb, Sharq.

### Annotatsiya

Maqolada ustoz-shogird an'analari va ularning umumiy tavsifi, xususan G'arb mamlakatlarida ustoz-shogirdlik an'analari shakllanishi va rivojlanishi borasida ilmiy asosdagi ma'lumotlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

### Kirish

O'zbekiston mustaqilligining har bir yili mamlakatning rivojlanish sari oldinga intilish, yuksalish, o'zlikni anglash yillari bo'ldi, deyish mumkin. Ayniqsa, yoshlarning tafakkur tarzini isloh etish, ularni kasbhunarli qilish, yigit-qizlarni jamiyatning faol a'zolari, o'z sohasining yetuk bilimdoni Bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish, buning uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash bugun o'z samarasini bermoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga KO'tarish bo'yicha barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda ta'limga hukumat darajasidagi yuksak e'tibor tufayli maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlar yuzaga keldi<sup>1</sup>.

Shavkat Mirziyoevning: —Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta'lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda,- degan so'zlari natijasini ko'rib turibmiz. Birgina 2017 yilda yangi ta'lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilib, 12 ta umumta'lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta'mirlandi, 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi, shuningdek, keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida yurtimizda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. Jumladan, 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Agar ta'lim tizimi borasida olib borilayotgan islohotlar yillar kesimida ko'rilsa, borgan sari o'sish, yuksalishni ko'rish mumkin, bu yutuqlar zahirida sharqona qadriyatlarni o'zida aks ettirgan ustozshogird an'analari mohiyatini anglash qiyin emas. Zero,

<sup>1</sup> Olimov Q.T., Nurboyev R.X., Eshpo'latov M.R. Oliy ta'lim darsligi modeli, funksiyalari va unga qo'yilgan talablar. – Toshkent: 2019. 321-b.

zaminimizda ustoz-shogird maktabi hech qachon to'xtamagan, hamisha bardavom bo'lgan. Ushbu maktab g'oyalarining asl tarixiy negizlariga nazar solsak G'arb va Sharqning o'z taraqqiyot yo'li va rivojlanish tendensiyalari borligiga guvoh bo'lamiz.

Albatta G'arbdagi ustoz-shogirdlik an'analari rivojlanishi qadimiy tarixga borib taqaladi.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Pifagor, Aristotel, Platonlar g'oyaga asoslangan o'zlarining inson kamoloti va tarbiya masalalarining falsafiy negizini yaratgan. Aristotel «Iskandarga qilgan nasihati»da (U Iskandar Zulqarnaynning ustози bo'lgan va bu ham o'z navbatida Aristotelni o'z otasidan ustun qo'ygan) insonni eng yuksak fazilati taqvodorlik, iymonli ilmiy bo'lishligini ta'kidlagan edi, ya'ni: «Taqvodorlik iymon vositasida kamol topadi. Iymon esa fikru andisha soyasida hosil bo'ladi», degan edi. Bu esa ushbu an'analarning Sharqona qarashlarga monand ko'rinishiga yana bir misol bo'la oladi.

Muallimiy soniy nomi bilan mashhur qomusiy olim Abu Nasr Forobiy tarbiya ikki usulda: ixtiyoriy va majburiy holda amalga oshirilishini aytgan. Qaysi usulda tarbiyalash tarbiyalanuvchining fe'l-atvoriga bog'liq, deydi. Sharq Aristoteli nomiga ham ega bo'lgan Farobiyning o'zi ixtiyoriy usulda Sharqda birinchi bo'lib G'arb olimi Aristotel ta'limotini o'rganadi va rivojlantirib davlat qomusi-konstitutsiya yaratishga asos soladi. Mutafakkir olim Aristotelni ko'rmagan bo'lsa ham o'z ustози deb tan olgan<sup>2</sup>.

Ustoz - shogird hamkorligidagi asosiy muammolardan biri shogirdlarni ilmiy, ijodiy va ijtimoiy mehnatga o'rgatishdan iboratdir. Mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

G'arbning zamonaviy g'oyalari va ta'limiy qarashlariga ko'ra «Ustoz shogirdi hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi hamda o'zini ro'yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa bu- boshqa odamlar bilan samarali o'zaro ta'sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko'rsata olishi lozim»<sup>3</sup>. Shogird har qanday raqobat holatida to'g'ri yo'l topa olish ko'nikmalarini va natijalarni to'g'ri aniqlay olishi, har bir kishidan rang-barang shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarni talab qilishni bilib boradi. Shogird natijada o'zining mustaqil harakat qilishi uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Demak, raqobat usuli shogirdni har tomonlama tayyor kadr bo'lib yetishishiga sababdir. Ustoz-shogird munosabatlarida mustahkam pedagogik-psixologik ko'rsatmalar ham shakllanib borishi mumkin.

Ammo ushbu g'oyalarning hozirgi zamon muhitidagi tutgan o'rni havas qiladigan darajada emas. Masalan: 2019 yilda Buyuk Britaniyaning «The Telegraph» nashri «Global Teacher Status Index» (Jahon o'qituvchi maqomini aniqlaydigan indeks)ga asoslanib, o'qituvchilik kasbining obro'sizlanishi jahon miqyosida kuzatilayotganini ma'lum qilgan.

Sotsiologik o'rganishlarga ko'ra, ustozga yuksak hurmat hissi Osiyoning ayrim mamlakatlarida, jumladan, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapurda saqlab qolingan ekan.

G'arb mamlakatlarida esa ustozga bo'lgan hurmat tuyg'usi unutlib bormoqda. Misol uchun, Yevropalik ota-onalarning bor-yo'g'i 25 foizi o'quvchilar o'qituvchilarini hurmat qiladilar, degan fikrda. Xitoyda esa 75 foiz ota-onalar farzandlari ustozlariga nisbatan yuqori hurmatda ekanliklariga ishonchlari komil<sup>4</sup>.

Natijada, farzandining o'qituvchi bo'lishini xohlaydigan ota-onalar soni ham kamayib bormoqda. Misol uchun, inglizlarning bor-yo'g'i 20 foizi, nemislarning 25 foizi farzandining kelajakda o'qituvchi bo'lish haqidagi orzusini qo'llab-quvvatlaydi<sup>5</sup>. Ushbu tahlillarning asosiy sababi va maqsadi aslida ustoz-shogirdlik an'alarining qimmatli qolibi va zamonaviy ta'lim tizimiga xos modelini yaratishdan iboratdir.

<sup>2</sup> M.Quronov —Bolam baxtli bo'lsin desangiz... Toshkent —Ma'naviyat-2013 y 271-b

<sup>3</sup> Hasanboyeva O.U., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 248 b.

<sup>4</sup> Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. T. «Yangi asr avlodi», 2021, 150 bet.

<sup>5</sup> <https://www.xabar.uz/uz/mualliflar/shuhrat-sattorov/qadr-qimmatini-yoqotayotgan-millat-memori>

## Xulosa

Bir soʻz bilan aytganda ustoz-shogirdlik anʼanasining Gʻarb mamlakatlaridagi daslabki paydo boʻlishi va hozirgi holati orasida katta faqr mavjud, chunonchi hozirgi kunda ushbu anʼanaga faqat moddiy-iqtisodiy tomonlama eʼtibor qilinadigan boʻlib qoldi. Albatta bu kabi munosabatlar natijasida bu faoliyat asosi hech qanday taʼlim-tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlmay qoladi. Demak, bu faoliyat asosida ixtiyoriylik tamoyili bilan bir qatorda, tizimli ravishda hamkorlik mazmunida har ikkala tomonini mutaxassislik darajasini yuqori darajaga koʻtarishi ham oʻz ifodasini topadi. Ularni yuqori darajadagi umum mutaxassislik xususiyatlari bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalari ham rivojlanib, shakllanib boradi. Yaʼni ulugʻmutafakkirlarining fikrlariga koʻra boʻlgʻusi mutaxassisni har tomonlama shakllantirish uchun uni oʻzini ham har tomonlama bilish zarur degan talablar “Ustoz-shogird” anʼanalari asosida amalga oshiriladi.

## Adabiyotlar

1. Zunnunov A., Xayrullayev M. Pedagogika tarixi.– T.: Sharq, 2000. - 240 b.
2. Gʻaybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatkulov R. Pedagogika. Toshkent, 2005.-176 b.
3. Hasanboyeva O.U., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: Oʻqituvchi, 1997. – 248 b.
4. Hasanboyev J., Toʻraqulov X.A., Alqarov I., Usmanov N.Oʻ. Pedagogika. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.- 482
5. Olimov Q.T., Nurboyev R.X., Eshpoʻlatov M.R. Oliy taʼlim darsligi modeli, funksiyalari va unga qoʻyilgan talablar. – Toshkent: 2019. 321-b.
6. Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. T. «Yangi asr avlodi», 2021, 150 bet.
7. Ziyonet.com, fayllar.org, yandex.ru, google.com